



NAVOIY VILOYATI KONIMEX TUMANI HOKIMINING QARORI

2024 - yil 15 - may

82-5-70-Q/24

Konimex tuman hokimiligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-apreldagi “2024-yilda ipoteka kreditlarini ajratish mexanizmlarini takomillashtirish va aholining uy-joy sharoitlarini yaxshilashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-70-sonli Farmoni hamda viloyat hokimining 2024 yil 8 maydagi 140-5-0-Q/24 sonli qarori ijrosini ta‘minlash haqida

Mamlakatimizda uy-joy sohasidagi islohotlarni samarali tashkil etish, “Yangi O‘zbekiston” massivlari va zamonaviy ko‘p kvartirali uylar qurish ko‘lamini kengaytirish, ipoteka krediti bozorini yanada rivojlantirish hamda banklar tomonidan o‘z mablag‘lari hisobidan ajratilgan kreditlarni qayta moliyalashtirish mexanizmlarini amaliyotga keng joriy qilish maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-apreldagi “2024-yilda ipoteka kreditlarini ajratish mexanizmlarini takomillashtirish va aholining uy-joy sharoitlarini yaxshilashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-70-sonli Farmoni hamda viloyat hokimining 2024 yil 8 maydagi 140-5-0-Q/24 sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoni bilan quyidagilar:

a) Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, Markaziy bank, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda O‘zbekiston mahallalari uyushmasining Bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta‘minlash dasturi doirasida:

hududlarda zamonaviy arxitektura ko‘rinishiga ega 100 mingta kvartiradan iborat bo‘lgan ko‘p qavatli uy-joylarni qurish;

qurilish tashkilotlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida ularga bozor

tamoyillari asosida ajratilgan kreditlar bo'yicha kompensatsiya va kafilliklar taqdim etish;

ko'p qavatli uy-joylar qurish jarayonlariga "yashil" uy-joy standartlarini keng joriy qilish;

ipoteka kreditlarini moliyalashtirishga O'zbekiston Respublikasi Respublika budjeti, "O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi" AJ hamda banklarning o'z mablag'lari hisobidan kamida 17 trillion so'm mablag' yo'naltirish;

Kambag'allikdan chiqarish dasturiga kiritilgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj bo'lgan shaxslarga yakka tartibdagi uy-joy qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash uchun 120 million so'mgacha ipoteka kreditlarini ajratish;

banklarning o'z mablag'lari hisobidan ajratilgan ipoteka kreditlarini Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan qayta moliyalashtirish mexanizmlaridan keng foydalanish to'g'risidagi takliflari ma'qullanganligi.

b) quyidagilar:

2024-yilda ipoteka kreditlarini qayta moliyalashtirishning maqsadli ko'rsatkichlari;

2024-yilda ipoteka kreditlari bo'yicha subsidiyalar to'lashning maqsadli ko'rsatkichlari;

2024-yilda "Yangi O'zbekiston" massivlarida ko'p qavatli uy-joylar qurishning manzilli ro'yxati;

"Yangi O'zbekiston" massivlarini qurish uchun qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar toifasidan tegishincha aholi punktlarining yerlari hamda sanoat maqsadlariga mo'ljallangan yerlar toifasiga o'tkazilayotgan yer maydonlari ro'yxati;

2024-yilda bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta'minlash dasturini amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman hokimining o'rinbosari (A.Otaqulov), tuman qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi (S.Muratov), tegishli tashkilotlar bilan:

yer uchastkalari elektron auksion savdolariga chiqarilishini, ko'p qavatli uy-joylar hamda muhandislik-transport kommunikatsiya tarmoqlarining o'z vaqtida qurib bitkazilishini, ko'p qavatli uy-joylar qurilishida energiya tejamkor materiallardan foydalanilishi hamda ushbu uy-joylarda qayta tiklanuvchi energiya

manbalari qurilmalari o‘rnatilishini ta’minlasin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosarlari U.Saitov va A.Otaqulov zimmasiga yuklansin.

Konimex tumani hokimi



**RO‘ZIYEV
RUSLAN.NASIROVICH**